



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**



# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE'MOL NARXLARI INDEKSI**

**2024- yil yanvar**

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA YIG'MA ISTE'MOL NARXLARI INDEKSI (INI)

## YANVAR

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2024- yilning yanvarida oylik yig'ma INI **100,6 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda (2023- yilning yanvariga nisbatan) yig'ma INI **108,6 %** darajasida qayd etildi.

**Iste'mol narxlari indeksi (INI)** iste'mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatori sifatida alohida o'rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich o'zgarmas iste'mol tuzilmasi bo'yicha aholi tomonidan ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan iste'mol uchun xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlarning belgilangan to'plami qiymatining o'zgarishini ifodalaydi.

Iste'mol narxlari o'zgarishini kuzatish uchun tovarlar va xizmatlar to'plami 420 turdagi **tovarlar va** 90 turdagi xizmatlarni qamrab oladi.

Har oyda **10 mingdan ortiq** savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan ortiq** narxlar qayd etiladi.

Oziq-ovqat  
mahsulotlari

 **170** turdagi tovarlar

Nooziq ovqat  
mahsulotlar


 **250** turdagi tovarlar

Xizmatlar

 **90** turdagi xizmatlar

# AYRIM DAVLATLARDAGI YIG‘MA INI

2023- yilning dekabr oyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlaridagi uyg‘unlashtirilgan (garmonik) indeks, o‘shish (pasayish) sur‘ati % da<sup>1</sup>



2023- yilning dekabr oyida ayrim davlatlardagi yig‘ma INI, o‘shish sur‘ati % da<sup>2</sup>



o‘tgan oyga nisbatan

2022- yilning dekabriga nisbatan

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasida milliy INIdan tashqari uyg‘unlashtirilgan (garmonik) INI ham e‘lon qilinib, mazkur indeks uyg‘unlashtirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq hisob-kitob qilinadi va shu sababdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste‘mol inflyatsiyasini xalqaro taqqoslash uchun maqbul statistik asos hisoblanadi.

Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan. INIning shakllantirishga “Iste‘mol narxlarini indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste‘mol narxlarini (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste‘mol narxlarini indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Statistika agentligining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi <https://lib.stat.uz>.

1) [https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC\\_HICP\\_MANR\\_\\_custom\\_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb](https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC_HICP_MANR__custom_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb)

2) milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma‘lumotlar asosida.

## TOVARLAR




2024- yilning yanvarida tovarlar bo'yicha oylik INI **100,6%** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda tovarlar bo'yicha INI **108,5%** darajasida shakllanib, o'rtacha oylik o'sish sur'ati **0,7%** ni tashkil etdi.

### o'tgan oyga nisbatan



### o'tgan yilning yanvariga nisbatan




## XIZMATLAR




Xizmatlar bo'yicha qisqa muddatli INI 2024- yilning yanvarida **100,9%** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvariga nisbatan ko'rsatkich **108,9%** ga yetib, o'rtacha oylik o'sish sur'ati **0,7%** ni tashkil etdi.

### o'tgan oyga nisbatan



### o'tgan yilning yanvariga nisbatan



Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning 10- sanasidan 20- sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi.


# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI

o'tgan oyga nisbatan


## Oziq-ovqat mahsulotlari



## Nooziq-ovqat mahsulotlar



## Xizmatlar




2024-yilning dastlabki oyida oziq-ovqat mahsulotlari qisqa muddatli INI **100,7 %** ni tashkil etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha ko'rsatkich **100,4 %** ga, pullik xizmatlar bo'yicha esa **100,9 %** ga yetdi.

o'tgan yilning yanvariga nisbatan


## Oziq-ovqat mahsulotlari



## Nooziq-ovqat mahsulotlar



## Xizmatlar



2024- yilning yanvarida oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha yillik INI **109,3 %** darajasida, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha **107,5 %**, pullik xizmatlar bo'yicha **108,9 %** darajasida qayd etilib, o'rtacha oylik o'sish sur'ati mos ravishda **0,7 %**, **0,6 %** va **0,7 %** ni tashkil etdi.


## YANVAR

o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan


### YIG'MA INI

100,3 % 100,8 % 100,5 % 100,5 % 100,4 %



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.


114,6 % 111,7 % 108,8 % 113,0 % 108,0 %



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.


### TOVARLAR

100,3 % 100,7 % 100,5 % 100,4 % 100,2 %



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.


114,5 % 112,8 % 109,5 % 114,6 % 107,7 %



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.


### OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI

100,4 % 100,9 % 100,4 % 100,2 % 100,1 %



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

118,1 % 116,5 % 111,1 % 118,3 % 108,0 %



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

Meva-sabzavot mahsulotlarining narx o'zgarishlarini hisobga olmaganda 2024- yilning yanvaridagi qisqa muddatli yig'ma INI **100,4 %** ni (ularning hisobiga **100,6 %**) tashkil etdi.


2023- yilning yanvariga nisbatan ushbu ko'rsatkich **108,0 %** darajasida shakllandi.

# ASOSIY GURUHLARDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING QISQA MUDDATLI YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI

Ta'siri (f.d.\*) va uning ulushi (%). 2024- yil yanvar

Ma'lumot uchun

o'tgan oyga nisbatan



2023- yilning yanvariga nisbatan



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar

2024- yilning yanvarida qisqa muddatli va yillik nisbatdagi INI o'sish sur'ati tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari narx o'zgarishlarining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida yuqoriroq bo'ldi.

2024- yilning yanvarida oziq-ovqat mahsulotlari narx o'zgarishlarining qisqa muddatli yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri ulushi jami ta'sir darajasining **46,9 %** ini, yillik nisbatdagi ko'rsatkich tuzilmasida esa **47,6 %** ini tashkil etdi.

\*) foiz darajasida

INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) salmoq vaznlarini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi (uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari) to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida iste'mol narxlari (ya'ni, tovarlar va xizmatlarning aholi tomonidan sotib olingan narxi) o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar. O'rtacha narxlar darajasiga assortiment va hududiy siljishlar kabi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. INIning hisoblashda, faqatgina inflyatsion omillarni aniqlash maqsadida ularning ta'siri hisobga olinmaydi.

Har bir tovarning yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri va ulushi tovarning narx o'zgarishlari hamda uning iste'mol xarajatlari tuzilmasidagi salmoq vaznini hisobga olgan holda aniqlanadi.

# MAQSADLAR BO‘YICHA INDIVIDUAL ISTE‘MOL TASNIFLAGICHI – 2018 (O‘ZR MIIT – 2018) BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI


Statistika agentligi tomonidan INIn shakllantirish BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste‘mol tasniflagichi – 2018 asosida (O‘zR MIIT – 2018) shakllantiriladi.

O‘zR MIIT – 2018 statistika sohasida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlarini hamda INIn 13 ta bo‘lim bo‘yicha guruhlashtirishni nazarda tutadi.

## yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan




### I Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar



### II Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




### III Kiyim va poyabzal




### IV Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari



### V Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish



### VI Sog‘liqni saqlash



yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan


Davomi




## VII Transport




## VIII Axborot va aloqa




## IX Dam olish, sport va madaniyat




## X Ta'lim sohasidagi xizmatlar




## XI Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



## XII Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar



## XIII Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar




2024- yilning yanvarida bo‘limlar kesimida qisqa muddatli INI diapazoni **100,0 %** dan (VIII bo‘lim “Axborot va aloqa”) **101,5 %** gacha (XI bo‘lim “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” chegarada bo‘ldi).

yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan




## Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar



I




## Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari



II




## Kiyim va poyabzal



III




## Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari



IV




## Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish



V




## Sog‘liqni saqlash



VI




## Transport



VII



## Axborot va aloqa




VIII

Davomi

yanvar o‘tgan yilning yanvariga nisbatan




## Dam olish, sport va madaniyat



IX




## Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XI



## Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar




XIII

2024- yilning yanvar oyida bo‘limlar kesimida yillik INI **99,7 %** dan (VIII bo‘lim “Axborot va aloqa”) **120,3 %** gacha (XI bo‘lim “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari”) chegarada bo‘ldi.




## Ta‘lim sohasidagi xizmatlar



X



## Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar



XII


**IZOH:** O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INI hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.

“Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II), “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV), va “Transport” (VII) bo‘limlaridan boshqa barcha bo‘limlarda 2024- yilning yanvar oyidagi yillik INI 2023- yilning mos ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.


# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I)

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan

## Donli ekinlar va yorma mahsulotlari




## Go‘sh t mahsulotlari




## Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




## Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




## Yog‘lar va moylar




## Mevalar va yong‘oqlar



## Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar




## Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



## Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari



## Spirtsiz ichimliklar



2024- yilning yanvarida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi guruhlarida kesimida qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,0 %** dan **103,3 %** gacha chegarada joylashdi.









100,0 % lik darajadan past qisqa muddatli INI oy davomida “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**99,8 %**), “Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari” (**99,0 %**), “Yog‘lar va moylar” (**99,2 %**) guruhlarida qayd etildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining oshishi asosan mavsumiylik omilining ta‘siri bilan bog‘liqdir. 2024- yilning yanvar oyida, “Mevalar va yong‘oqlar” guruhida qisqa muddatli INI **102,2 %** ni, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar” guruhida esa **103,4 %** ni tashkil etdi.

Bo‘limning boshqa guruhlarida oylik INI past darajada bo‘ldi va **100,3 %** dan oshmadi.

# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I)

yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” bo‘limi guruhlarida kesimida 2024- yilning yanvar oyidagi yillik INI **89,9 %** dan **111,5 %** gacha chegarada joylashdi.

“Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**109,2 %** ga **130,5 %**), “Yog‘lar va moylar” (**89,9 %** ga **110,1 %**), “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” (**94,7 %** ga **114,9 %**) va “Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar” (**109,6 %** ga **123,1 %**) guruhlarida 2024- yilning yanvarida yillik nisbatdagi INI 2023- yilning yanvaridagi mos ko‘rsatkichdan sezilarli darajada past bo‘ldi.

Mevalar va yong‘ochlar bo‘yicha yillik INI 2024- yilning yanvarida aksincha, bir yil avvalgiga nisbatan yuqoriroq bo‘lganligi kuzatildi (**138,9 %** ga **92,3 %**).

# ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI



## Guruch va guruch oqshog'i




## Bug'doy uni



## Mol go'shti (suyakli)



## Qo'y go'shti



## Xom, yangi sog'ilgan sut



## Tuxum



## Kungaboqar yog'i



## Shakar




o'tgan oyga nisbatan


o'tgan yilning yanvariga nisbatan

# 2024- YILNING YANVARIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI NI

## o'tgan oyga nisbatan



## o'tgan yilning yanvariga nisbatan




2024- yilning yanvarida bodring, karam, sabzi, lavlagi, sitrus mevalar kabi meva-sabzavot mahsulotlari narxlarida pasayish kuzatildi. Shu bilan bir qatorda, baqlajon, bulg'ori qalampiri, banan kabi mevalar va sabzavotlar narxlarida o'sish kuzatildi.

Baqlajon, piyoz va bulg'or qalampiri 2023- yilning yanvar oyidan buyon narxlar pasayishi bo'yicha yetakchilikni saqlab qoldi. Aksincha, anor narxlarida 2023- yilning yanvariga nisbatan o'sish saqlanib qoldi.

o'tgan oyga nisbatan

Yig'ma INI o'sish sur'atiga jami ta'siri  
**+0,29 f.d.**



Meva-sabzavot mahsulotlari narx o'zgarishlarining I bo'lim tovarlari orasida 2024- yil yanvaridagi qisqa muddatli INI o'sish sur'atiga ta'siri o'sganligi kuzatildi (jami **+0,28 f.d.**).

Yog'-moy mahsulotlari, baliq va dengiz mahsulotlari hamda donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlari pasayishi (jami hisobda **-0,05 f.d.**) inflyatsiyani tutib turuvchi omil bo'ldi.


I bo'limga kiruvchi tovarlar orasida "Mevalar va yong'oqlar", "Donli ekinlar va yorma mahsulotlari" va "Go'sht mahsulotlari" guruhlaridagi narx o'zgarishlarining 2024- yilning yanvar oyidagi yillik yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri boshqa guruhlariga nisbatan yuqoriroq bo'ldi (jami ta'siri **+3,75 f.d.**).

"Yog'lar va moylar" va "Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar" guruhlaridagi narx pasayishi tutib turuvchi ta'sir ko'rsatib, ularning hisobiga 2023- yilning yanvariga nisbatan yig'ma ko'rsatkich **-0,52 f.d.** pasaydi.

# “SPIRTLII ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II)

## SPIRTLII ICHIMLIKLAR

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan



2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

## TAMAKI MAHSULOTLARI

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan




2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

2024- yilning yanvarida “Spirtili ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) bo‘limida qisqa muddatli INI tebranishlari **100,3 %** dan (pivo) **100,8 %** gacha (sigaret) oraliqda joylashdi. II bo‘lim bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqoriroq ko‘rsatkich sigaretlarda kuzatilgan bo‘lsa, bo‘limning boshqa tovarlari bo‘yicha ko‘rsatkich mazkur o‘rtacha ko‘rsatkichda past bo‘ldi.

2023- yilning yanvariga nisbatan spirtili ichimliklar va tamaki mahsulotlari bo‘yicha INI **108,7 %** dan (pivo) **112,4 %** gacha (boshqa tamaki mahsulotlari) oraliqda joylashdi.

# “KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III)

## KIYIM

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



## POYABZAL


yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



2024- yilning yanvarida “Kiyimlar va poyabzal” (III) bo‘limida qisqa muddatli INI kiyimlar va poyabzallar bo‘yicha ham o‘tgan yilning yanvaridagi mos ko‘rsatkichdan past bo‘ldi. Shunga o‘xshash holat yillik nisbatdagi INI da ham kuzatildi.

“Kiyim va poyabzal” bo‘limida qisqa muddatli INI diapazoni 2024- yilning yanvarida **99,7 %** dan (erkaklar uchun kostyum) **101,1 %** gacha (dastro‘mol) oraliqda bo‘ldi.

III bo‘lim tovarlari bo‘yicha 2023- yilning yanvariga nisbatan INI **102,5 %** dan (ayollar uchun sviter, jemper, puloverlar) **115,1 %** gacha (kimyoviy tozalash xizmatlari) diapazonda bo‘ldi.

# “TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV)

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan

yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

## TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI \*



## TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



## SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR




## ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



\* kuzatuv 2021- yildan boshlangan.

## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

2024- yilning yanvar oyida respublikaning oltita hududida chiqindilardan tozalash uchun to‘lov qiymati oshirilgan. O‘shish diapazoni **8,2 %** dan (Buxoro viloyati) **2 barobar-gachani** (Namangan viloyati) tashkil etdi. Boshqa hududlarda chiqindilarni tozalash bo‘yicha xizmatlar tariflarining barqarorligi hisobiga ushbu xizmat turida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha INI oy davomida **118,0 %** ga yetdi.

Joriy yil boshidan sovuq suv va kanalizatsiya xizmatlari uchun to‘lovlar hisob-kitoblarida avvalroq mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo‘shimcha o‘rnatilgan to‘lovlar bekor qilindi. Bu, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan boshqa barcha hududlarda ushbu xizmat turi bo‘yicha qisqa muddatli INI pasayishida namoyon bo‘ldi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida qo‘shimcha to‘lovlar bekor qilinishi bilan birga, tarif o‘lchami ham oshirildi.

# “UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH” BO‘LIMI (V)

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan

## MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI



2020- y 2021- y 2022- y 2023- y 2024- y.

yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI



2020- y 2021- y 2022- y 2023- y 2024- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## MAISHIY USKUNALAR



2020- y 2021- y 2022- y 2023- y 2024- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



2020- y 2021- y 2022- y 2023- y 2024- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR



2020- y 2021- y 2022- y 2023- y 2024- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



2020- y 2021- y 2022- y 2023- y 2024- y.



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



Gazlamalar va darpardalar



Ko‘rpa to‘shak belyosi va yotarjoy buyumlari



Oshxonalar belyosi va vannaxonalar belyosi



Maishiy priborlarni ta‘mirlash, o‘rnatish va ijaraga berish



Oshxona anjomlari va uy-ro‘zg‘or asboblari



Maishiy yuvish va tozalash vositalari



Motorsiz asboblari



o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

“Uy-ro‘zg‘or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish” (V) bo‘limi bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi qisqa muddatli INI **99,7 %** dan (tova) **101,1 %** gacha (belkurak, ketmon, panshaxa) oraliqda bo‘ldi.


2023- yilning yanvariga nisbatan INI tebranishlari chegarasi **104,1 %** (yotoqxonaga uchun mebellar to‘plami) - **115,6 %** (gilam va gilam mahsulotlarini yuvish va tozalash bo‘yicha xizmatlar)ni tashkil etdi.

## “SOG‘LIQNI SAQLASH” BO‘LIMI (VI)

yanvar oyida  
o‘tgan oyga  
nisbatan

yanvar oyida  
o‘tgan yilning  
yanvariga  
nisbatan

### DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

### AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

### STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

### SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

“Sog‘liqni saqlash” (VI) bo‘limiga kiruvchi tovarlar bo‘yicha 2024- yilning yanvar oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,3 %** dan (tibbiy laboratoriyalar xizmatlari) **101,3 %** gacha (antibiotik) oraliqda joylashdi.

2023- yilning yanvariga nisbatan INI **97,2 %** dan (tibbiy niqoblar va qo‘lqoplar) **111,7 %** gacha (antibiotik) diapazonda joylashdi.

2024- yilning yanvaridagi yillik INI 2023- yilning yanvaridagiga nisbatan bo‘limning to‘rtta guruhidan uchtasida past bo‘ldi. “Stasionarda davolash bo‘yicha xizmatlar” guruhida ushbu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvaridagiga nisbatan 2,3 foiz bandga balandroq bo‘ldi.

# “TRANSPORT” (VII) bo‘limi

yanvar oyida  
o‘tgan oyga  
nisbatan

yanvar oyida  
o‘tgan yilning  
yanvariga  
nisbatan

## TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH



## SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH



## YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI




## TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR




## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI

### Yoqilg‘i turlari bo‘yicha



### Yo‘lovchi transporti



o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

2024- yilning yanvarida benzin narxi barcha hududlarda oshgani kuzatildi. Uning qisqa muddatli INI diapazoni **101,2-106,4 %** ni tashkil etdi. Propan narxi ham barcha hududlarda oshdi. Uning oylik INI diapazoni **100,7 %** do **111,9 %** ni tashkil etdi. Metan narxining eng yuqori qiymati belgilanganligi ushbu yoqilg‘i turi narxlarining joriy yil yanvarida barqaror bo‘lishini ta’minladi.

## AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR


yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

Talabni kuchaytirish maqsadida turli aksiyalarning o‘tkazilishi mobil telefon (INI **99,9 %**) va televizor (**99,8 %**) kabi tovarlar turlari bo‘yicha qisqa muddatli INI ko‘rsatkichida aks etti. VIII bo‘limda kompleks telekommunikatsiya xizmatlari (**100,8 %**) narxlari boshqalarga nisbatan tezroq o‘sganligi kuzatildi.

# “DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT” BO‘LIMI (IX)

## yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR



## MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR



## KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH



## BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI



## GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI



## DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

2024- yilning yanvar oyidan poytaxt va Farg‘ona viloyatining istirohat bog‘larida attraksion uchun chiptalar narxlari oshirildi. Muzeylarga tashrif buyurish Samarqand viloyatida qimmatlashgan. Teatr, konsert zallari xizmatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasida qimmatlashdi. Joriy yil boshidan barcha viloyatlarda gazetalar va davriy nashrlar narxlari oshirildi (respublika bo‘yicha INI oy davomida o‘rtacha **125,7 %** ni tashkil etdi.)

2023- yilning yanvariga nisbatan INI diapazoni IX bo‘limda **94,5 %** (A4 formatidagi qog‘oz) – **152,4 %** (hayvonot bog‘lari xizmatlari)ni tashkil etdi.

# “TA'LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR ” BO'LIMI (X)

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## OLIY TA'LIM

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## Asosiy turlar bo'yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

2024- yilning yanvaridan respublikaning oltita hududida xususiy MTT xizmatlari narxlari oshirildi. Toshkent viloyatida yuqoriroq (**9,1 %**) o'sish kuzatilgan bo'lsa, eng past o'sish ko'rsatkichi (**1,6 %**) Samarqand viloyatida qayd etildi.

Repetitorlar xizmatlari bo'yicha qisqa muddatli INI 2024- yilning dastlabki oyida respublika bo'yicha o'rtacha **100,9 %** ni tashkil etdi.

\*) maktabgacha ta'lim tashkilotlari

# “RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI)

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



## MEHMONXONALAR XIZMATLARI

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

Joriy yilning yanvar oyida umumiy ovqatlanish sohasida qisqa muddatli INI **100,1 %** dan (boshqa oshxonalar, kafeteriy va gazakxonalar xizmatlari) **100,9 %** gacha (oshxonalaridagi tayyor taomlar) oraliqda tebrandi.

Mehmonxonalar xizmatlari narxi joriy yil boshidan barcha hududlarda **1,2-21,6 %** chegarada o‘tdi. Sanatoriylar va dam olish uylari xizmatlari narxi 2024- yilning yanvar oyidan **2,2 %** dan (Andijon viloyati) **22,7 %** gacha (Buxoro viloyati) diapazonda oshganligi kuzatildi.

## SUG‘URTA

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## MOLIVAVIY XIZMATLAR

yanvar oyida o‘tgan oyga nisbatan




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

yanvar oyida o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## Asosiy turlar bo‘yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



 o‘tgan oyga nisbatan

 o‘tgan yilning yanvariga nisbatan

Moliyaviy xizmatlar orasida 2024- yilning yanvar oyida bank muassasalari xizmatlari hamda banklar orqali pul o‘tkazmalari xizmatlari narxlarida o‘zgarish kuzatildi. Ushbu xizmat turlarida qisqa muddatli INI mos ravishda **101,4 %** va **100,4 %** ni tashkil etdi.

Elektron to‘lov tizimlari orqali pul o‘tkazish uchun to‘lov aksincha, o‘rtacha **0,9 %** ga pasaydi. Bu holat, Click mobil ilovasi orqali pul o‘tkazmalari uchun undiriladigan foiz o‘lchovining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

# “MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII)

## MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## BOSHQA XIZMATLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## Asosiy turlar bo'yicha 2024- yilning yanvaridagi INI



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

2024- yilning yanvarida XIII bo'limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo'yicha qisqa muddatli INI ko'rsatkichi **99,8 %** dan (soch uchun bo'yoqlar) **101,5 %** gacha (hammomlar va dushxonalar xizmatlari) chegarada bo'ldi.

2023- yilning yanvariga nisbatan yillik INI ushbu bo'limda **105,6 %** dan (ayollar sumkalari) **120,6 %** gacha (hammomlar va dushxonalar xizmatlari) oraliqda joylashdi.

Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta’sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

**Narx indeksi salmog‘i** – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;
- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;
- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

Oylik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d.

**+0,64 f.d.**



Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtli ichimliklar narx o‘zgarishlarining 2024- yil yanvardagi qisqa muddatli yig‘ma ko‘rsatkich o‘sish sur‘atiga ta’siri yuqoriroq bo‘lganligi kuzatildi. Ularning hissasiga umumiy ta’sir darajasining **45 %** dan ortig‘i to‘g‘ri keldi.

“Transport” va “Turar joy xizmatlari, elektr, gaz va boshqa yoqilg‘i turlari” bo‘limlaridagi narx o‘zgarishlari hisobiga 2024- yilning yanvaridagi oylik yig‘ma INI **0,21 f.d.** o‘sdi (umumiy ta’sir darajasining **32,8 %**).

2024- yilning yanvarida yillik nisbatdagi yig‘ma INI umumiy o‘sish sur‘ati **8,58 f.d.** ni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining o‘shishi ushbu o‘sish sur‘atining **42,9 %** ini ta’minladi.

